

**MUSIQA VA IJODIY MADANIYAT RIVOJLANISHIDA JADID  
DRAMATURGIYASI NING ROLI (BEHBUDIY VA FITRAT DRAMALARI  
MISOLIDA)**

**Bozorova Feruza**

Termiz tumani 13 sonli bolalar  
musiqa va sa'nat maktabi 2 toifali o'qituvchi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqa va ijodiy madaniyat rivojlanishida jadid dramaturgiyasining o'ziga xos roli tahlil qilingan bo'lib, Behbudiy va Fitrat dramalarining o'ziga xos g'oyaviy maqsadlari va jamiyat hayotiga madaniy ta'siri borasida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** jadid adabiyoti, "Padarkush", ramzlar, Eduard Ollvord, Inson, Istiqlol

**KIRISH**

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari, ularning hayot faoliyati bir tomondan jahonda yuz berayotgan globallashuv, tezkor axborotlashuv, modernizatsiyalashuv jarayonlari, ikkinchi tomondan yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, demokratik taraqqiyot tamoyillari asosida rivojlanayotgan, tub islohotlar amalga oshirilayotgan davrga to'g'ri kelganligi bilan ahamiyatli. Bu esa o'z navbatida kelajagini huquqiy demokratik, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish istiqbollarini amalga oshirishda davlat va jamiyat asosiy, shuningdek birinchi ahamiyatga molik bo'lgan vazifani ko'ngildagidek uddalashni yoshlar harakati, ular tutgan mavqe va mas'uliyatda deb ishonch bilan qarashimizdadir. Ayni vaqtda, bugungi globallashuv davrida jahon miqyosida chuqur moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan, raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir sharoitda biz mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini har tomonlama tahlil qilib, davlatimizni barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqildi.

Ushbu Strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabi masalalar taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab olindi.<sup>1</sup> Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish mamlakatimizni demokratlashtirish, modernizatsiya va islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy totuvlik, hamjihatlik, hamkorlikning mustahkam hamda barqaror bo'lishini ta'minlashda, shuningdek milliy qadriyatlarimiz va madaniy merosimiz targ'ibida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning birinchi: "Shu borada ulug' ajdodlarimizning bebaho madaniy va ma'rifiy merosini, muqaddas qadriyatlarimizni tiklash va hayotga qaytarish bilan birga, hayotimizni zamonning eng ilg'or yutuq va mezonlari bilan boyitish, komil inson, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya ishini mutlaqo yangi negizda tashkil etish, muqaddas dinimizga hurmat-ehtirom – faoliyatimizning ma'no-mazmunini belgilab kelmoqda. Bularning barchasi, avvalambor, "Yosh avlodga e'tibor – kelajakka e'tibor" degan, o'z oldimizga qo'ygan shior-maqsadlarimizning biz uchun kuch-quvvat va ruhiy boylik manbai bo'lib, ertangi kunimizning ishonchli poydevori va kafolatiga aylanishi muqarrar".<sup>2</sup>

Ma'naviyat inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog'langan,

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017-yil.

<sup>2</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.:Universitet. 1998- yil.

jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir.<sup>3</sup> Ma'naviyat inson hayotini bezaydi, go'zallashtiradi. Ilmiy bilimlarsiz xalqlar ma'naviyatini shakllantirish ilojisiz ekanligini tushungan ajdodlarimiz, mutafakkir olimlarimiz islom ma'naviyatini yangi bilimlar bilan boyitib, tarixiy jarayonda odamlar imon-e'tiqodi ma'naviyati, dunyoqarashini shakllantirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Ilm-ma'rifat, ma'naviyat inson kamoloti uchun nechog'lik muhim ekanligini xalq ongiga singdirishda ma'rifatparvar ziyolilarimiz kerak bo'lsa o'z jonlarini fido qildilar. Bugungi kunda esa, mamlakatimizda yangi fuqarolik jamiyatni qurishda milliy ma'naviyatimiz hamda islomiy qadriyatlarimiz axloq-odobni mazkur ta'sirchan targ'ibot vositasidan keng foydalanish milliy g'oya va mafkuraning shakllanishiga, jamiyatimiz a'zolarini zamonamiz talab qilayotgan yuksak ma'naviyat ruxida tarbiyalashga yordam beradi.<sup>4</sup>

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLILLAR

XX asr boshlarida jadid ijodkorlarimiz o'z oldilariga va jamiyat kun tartibiga tamoman yangi barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini qo'ygan edilar. Yangi asr shiddatli tartibsizliklar bilan boshlandi va endi eskicha yashab bo'lmay qoldi. Prof. B.Qosimov bu haqda yozadi: "Jadidchilikning asosida "jadid" so'zi yotadi. "Jadid"ning ma'nosi "yangi" demakdir. U shunchaki "yangi" yo bo'lmasa, "yangilik tarafdori" degani emas. Balki "yangi tafakkur", "yangi inson", "yangi avlod" singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etadi"<sup>5</sup>. Keling, endi konsepsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Konsepsiya [lat. conceptio]

- 1) qarashlar tizimi, hodisa, jarayonni u yoki bu tarzda tushunish;
- 2) biror asar, ilmiy ish va shunga o'xshash narsalarning yagona, yetakchi, asosiy g'oyalarni, aniqlovchi fikri<sup>6</sup>.

XX asrning 11-yiligacha o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri yo'q edi. Aristotel san'atni mimesis taqlid natijasi deb atagan. Ammo shunday bo'lganida edi, bizda ham dramaturgiya ertaroq ro'y bergan bo'lur edi. Shekspir davrida dramaturgiya o'zining haddi a'losiga ko'tarilgan ekan, buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Shekspir ijodi, jumladan dramaturgiyasi oziqlangan sarchashma ingliz xalq og'zaki ijodidir. Ingliz xalq og'zaki ijodi murakkab, sintetik san'atdir. Ko'pincha unda turli xil san'at turlarining elementlari birlashadi. Bular – so'z (og'zaki), musiqiy, teatr. Uni turli fanlar – tarix, psixologiya, sotsiologiya, etnologiya, (etnografiya) o'rganadi. U xalq hayoti va marosimlari bilan chambarchas bog'liq. Ming bor eshitgandan, bir bor ko'rgan afzal, — degan maqol ingliz, xususan, Shekspir asarlariga qanchalik singdirib yuborilgani diqqatga sazovordir

XX asrning 11-yiliga kelib, o'zbek jadid adabiyotiga ham dramaturgiya janri kirib keldi. Ilk dramatik asar "Padarkush" yoxud o'qimag'on bolaning holi" deb nomlanadi. Behbudiyning "Padarkush"ini, umuman 10-yillardagi jadid adabiyotini biz juda jo'n, sodda, quruq da'vat va chaqiriqlardan iborat deb hisoblaymiz. "Jadidchilikning ruhi va mazmunini o'zida bekamko'st namoyon etgan jadid adabiyoti milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos rol o'ynaydi. Bu adabiyotning ilk namunalarini badiiyatiga ko'ra u qadar yuksak emas, g'oyalar yaydoq beriladi. Yalang'och da'vat va chaqiriqlar, shiorbozlik ko'zga tashlanadi"<sup>7</sup>. Jadidchilik ilmiy maktabining asoschisi B.Qosimov shunday fikrni o'rtaga tashlagan. Biz bu fikrga qo'shilamiz.

Amerika o'zbek jadid adabiyotini o'rganish ilmiy maktabi asoschisi Eduard Ollvordning Behbudiy "Padarkush"i haqidagi fikrlari o'zgacha. Uning fikricha, "Padarkush" oddiy asar

<sup>3</sup> B.Hasanov, N.Karimov. M.Behbudiy merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati. – T. 2014-yil. 102-b.

<sup>4</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyna" jurnali. 1914-yil. 41-son. 970-972-betlar.

<sup>5</sup> Qosimov B. Milliy uyg'onish – T.: Ma'naviyat. 2002. -B 5

<sup>6</sup> Komilova S. Zamonaviy o'zbek adabiy jarayoni konsepsiyasi. www.saviya.uz.

<sup>7</sup> Berdyaev N. Jamiyat hayotida so'z va voqelik. // Jahon adabiyoti, Toshkent: 2006. – B.170-177; Samopoznaniya. –Moskva, 2017.[http://www.litres.ru/pages/biblio\\_book](http://www.litres.ru/pages/biblio_book)

emas. Undagi ismlar bekorga tanlanmagan. “Padarkush” dramasi hammasi timsol bo‘lib, asarda ko‘chma ma’no tashishga xizmat qiladi. Masalan, boyning o‘g‘li Toshmurod. Tosh va murod birikmalaridan yasalgan. Tosh-turkiycha so‘z bo‘lib, qattiq. Murod — arabcha so‘z bo‘lib, ko‘pligi murodot, niyat maqsad deganidir. O‘zining qattiq niyatiga yetgan, toshmehr. Ko‘ngli qattiq yigit.

#### **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Asardagi barcha ismlar amerikalik olim ta’kidlaganidek, kinoyaga asoslangan bo‘lib, ular asar mohiyatini ochishda kalit vazifasini bajaradi. Demak, XX asr boshiga kelib milliy adabiyotimizga yangi tur va janrlar bilan birga, rus adabiyoti orqali jahon adabiyotidan o‘tkir ironiya ham kirib keldi. Bularning barchasi zamirida “inson”, “yangi inson”, “yangi insonni tarbiyalash” kabi jamiyat uchun nihoyatda qiyin bo‘lgan masalalar turardi. O‘zbek mumtoz adabiyotida asrlar davomida Payg‘ambarimiz obrazi komil inson timsoli bo‘lib keldi. Jadid ijodkorlari dinni rad etmadilar, aksincha yangi avlodni ham islomiy ham dunyoviy ilmlar bilan qurollantirishni maqsad qildilar. Jadid ijodkorlari oldida tom ma’nodagi yangi barkamol ideal inson obrazini yaratish vazifasi turardi. Ammo tom ma’nodagi yangi barkamol insonni tarbiyalash qanchalar qiyin bo‘lsa, uning obrazini, ya’ni ideal inson obrazini badiiy adabiyotda yaratish undan ham qiyin edi. Shuning uchun jadid ijodkorlarimiz o‘zlari uchun juda qulay bir yo‘lni topdilar. Bu ideal insonning antipodini yaratish edi. Shu yo‘l tufayli A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon”idagi mulla Abdurahmon, “O‘tgan kunlar”dagi Homid obrazlari yaratildi.

Jadidlar kun tartibiga qo‘ygan yangi inson ma’rifatli bo‘lishi lozim edi. Ma’rifatdan ozod jamiyat sari qadam qo‘yilishi bu mantiqan juda to‘g‘ri edi. Chunki inson o‘z haq-huquqini bilmasa, savodi bo‘lmasa, qanday qilib u ozodlik haqida orzu qilishi yoki unga erishishi mumkin. Turkistondagi jadidchilik ma’rifat libosidagi ozodlik edi. Turkistondagi fikriy uyg‘onish, milliy ozodlik g‘oyalarining badiiy adabiyotda aks etishida shubhasiz Abdurauf Fitrat markaziy o‘rinni egallaydi. Birgina uning dramaturgiyasi bu sohada eng peshqadam o‘rinni egallaydi, deb bemalol ayta olamiz.

Fitratning “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” asarida voqealar Hindistonda bo‘lib o‘tadi. Buning uchta sababi bor, bizningcha.

**Birinchidan**, asar voqealarining boshqa joyda bo‘lishi bu kitobxon uchun ekzotika. Qiziqarli va kitobxonni o‘ziga jalb qiladi.

**Ikkinchidan**, yozuvchi uchun himoya vositasi. Asar voqealarini boshqa joyga ko‘chirib tasvirlash badiiy adabiyotdagi shartlilik.

**Uchinchidan**, Fitrat haj safaridan qaytayotganda, hamyonini o‘g‘irlatib, bir qancha vaqt Hindistonda qolib ketadi va qaytish pulini ishlab topgandan so‘ng vatanga qaytgan.

Hindiston mavzusi Fitrat uchun begona emas, u yerni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Fitratning mazkur dramalaridagi insonlar tom ma’nodagi yangicha fikrlaydigan insonlardir. Aslida Fitratning o‘zi boshqacha fikrlagani, rus va g‘arb imperialistik siyosatining mohiyatini anglab yetgani uchun ham uning qahramonlari shunday fikrlaydi. Fitrat dramalari qatida Istiqlol orzusi yashiringan edi. Istiqlol arabcha so‘z bo‘lib, mustaqillik; o‘z-o‘zini boshqarish, avtonomiya degan ma’nolarni ifodalaydi. Buni biz “Chin sevish”dagi Karimbaxsh va Nuriddinxon obrazlarida ko‘ramiz. Bir vaqtlar Yevropani maqtagan Karimbaxsh endi uni maqtamaydi. “Yevropada bilim bor, lekin insof yo‘q. Yevropaning bilimi qoplonning tish-tirnog‘i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib yemak to‘g‘risida ko‘p ish ko‘zlamishdir”. Qizig‘i, Nuriddinxon ham shunday fikrlaydi. O‘zi Yevropa tahsilini olgan yigit Yevropadan hafsalasi pir bo‘lgan. “Yevropada hayvonliqdan boshqa narsa yo‘qdir. Yevropaliklarda ruh yo‘qdir. Bular ruhoniylar lazzatdan bir narsa onglamaylar. Chin sevish va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdir. Majnunlar, Farhodlar kabi ishq payg‘ambarlari Sharqda yetishdilar”.

Ehtimol, har ikkisining fikrlashi bir xil bo‘lgani uchun Karimbaxshxon qizi Zulayhoni Nuriddinxonga loyiq ko‘rar. Qancha mol-davlati ko‘p bo‘lmasin, Rahmatulloh o‘zining tuban

fikrlashi bilan Karimbaxshning qalbidan tobora uzoqlashib boradi. “Hind ixtilolchilari”dagi Rahimbaxsh va Dilnavoz, “Chin sevis”dagi Nuriddinxon va Zulayho har ikki asardagi qo‘sh oshiq va ma’shuqalar yerdagi tubanliklardan balandga, ko‘kka uchmoqni orzu qiladilar. O‘z ma’shuqalarini balandlarga yuksalishga undaydilar.

#### **XULOSA**

Bir so‘z bilan aytgan mazkur yuqorida aytilgan dramaturgiya va baddiy janrdagi ijodiy namunalar avvalo o‘ziga xos ozodlik, istiqlol va farovon jamiyat oruzlaruni o‘zida aks etganligi bilan ajralib turadi. Boshqa tarafdin esa, usha davr madaniy-ma’rifiy va musiqiy sferasiga yangicha g‘oyalar, bunyodkorlik va keng dunyoqarash yo‘g‘rilgan issiq qon olib kirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Garchi o‘zbek jadid adabiyotining ilk dramasi bo‘lsa-da, “Padarkush” ramz va timsollar bilan to‘yingan bir asar ekanligi kuzatishlarimiz davomida ma’lum bo‘ldi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Sh.Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poymdevoridir. 2017-yil.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.:Universitet. 1998- yil.
3. B.Hasanov, N.Karimov. M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. – T. 2014-yil. 102-b.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. “Oyna” jurnali. 1914-yil. 41-son. 970-972-betlar.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish – T.: Ma’naviyat. 2002. -B 5
6. Komilova S. Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayoni konsepsiyasi. [www.saviya.uz](http://www.saviya.uz).
7. Berdyaev N. Jamiyat hayotida so‘z va voqelik. // Jahon adabiyoti, Toshkent: 2006. – B.170-177; Samopoznaniya. –Moskva, 2017.[http://www.litres.ru/pages/biblio\\_book](http://www.litres.ru/pages/biblio_book)